

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARIDA NUTQ
MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH METODLARI**

Mallayeva Gulshada Maxmudjonovna

Angren universiteti “Pedagogika va psixologiya”

kafedra o‘qituvchisi

gulshodamallayeva89@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida nutq madaniyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari, zamonaviy metodlari hamda innovatsion yondashuvlari tahlil qilinadi. Nutq madaniyatining o‘qituvchi kasbiy kompetensiyasidagi o‘rni, kommunikativ kompetensiyani shakllantirish mexanizmlari va interfaol metodlarning samaradorligi yoritilgan. Shuningdek, oliy ta‘lim jarayonida talabalar nutqini rivojlantirishda dialogik ta‘lim, muammoli ta‘lim, kreativ topshiriqlar va axborot texnologiyalaridan foydalanish masalalari ilmiy manbalar asosida ochib berilgan. Tadqiqot davomida nutq madaniyatini rivojlantirishning amaliy usullari hamda metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *nutq madaniyati, kommunikativ kompetensiya, pedagogik mahorat, tafakkur, interfaol metodlar, kreativ fikrlash, boshlang‘ich ta‘lim, innovatsion texnologiyalar, og‘zaki nutq, yozma nutq.*

**МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ РЕЧЕВОЙ КУЛЬТУРЫ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ
НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ**

Аннотация: *В данной статье анализируются педагогические и психологические основы, современные методы и инновационные подходы к развитию речевой культуры у будущих учителей начальной школы. Выделена роль речевой культуры в профессиональной компетентности учителя, механизмы формирования коммуникативной компетентности и эффективность интерактивных методов. Также на основе научных источников раскрыты вопросы диалогического воспитания, проблемно-ориентированного обучения, творческих заданий и использования информационных технологий в развитии речи учащихся в процессе высшего образования. В ходе исследования разработаны практические методы и методические рекомендации по развитию речевой культуры.*

Ключевые слова: *речевая культура, коммуникативная компетентность, педагогические навыки, мышление, интерактивные методы, творческое мышление, начальное образование, инновационные технологии, устная речь, письменная речь.*

**METHODS OF DEVELOPING SPEECH CULTURE IN FUTURE PRIMARY
TEACHERS**

Annotation: *This article analyzes the pedagogical and psychological foundations, modern methods and innovative approaches to developing speech culture in future primary school teachers. The role of speech culture in the professional competence of a teacher, the mechanisms for forming communicative competence and the effectiveness of interactive methods are highlighted. Also, the issues of dialogic education, problem-based learning, creative tasks and the use of information technologies in the development of students' speech in the process of higher education are revealed on the basis of scientific sources. During the study, practical methods and methodological recommendations for developing speech culture were developed.*

Keywords: *speech culture, communicative competence, pedagogical skills, thinking, interactive methods, creative thinking, primary education, innovative technologies, oral speech, written speech.*

Kirish

Nutq madaniyati pedagogning kasbiy mahoratini belgilovchi muhim omil bo‘lib, u o‘qituvchining fikrni aniq, ravon, mantiqiy va ta’sirchan ifoda eta olish qobiliyatini namoyon etadi. O‘qituvchi nutqining boyligi, ifodaliligi va adabiy til me’yorlariga mosligi o‘quvchilarning bilim olish faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois oliy pedagogik ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarning nutq kompetensiyasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchilar tafakkuri, dunyoqarashi va nutqining shakllanishida asosiy shaxs hisoblanadi. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirish pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri sifatida qaralmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “*Yangi O‘zbekistonni barpo etishda eng katta tayanchimiz — bu bilimli, ma’naviyatli va zamonaviy fikrlaydigan yoshlarimizdir.*” Ushbu fikr yosh avlodni har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlovchi va yuksak nutq madaniyatiga ega etib tarbiyalash zaruratini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, pedagog kadrlar sifatini oshirish va uzluksiz ta’limni rivojlantirishning huquqiy asoslarini belgilab berdi.

Shuningdek, PF-5847-son Farmon asosida O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlanib, unda bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va ta’lim sifatini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Mazkur hujjatlar asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida ularning nafaqat nazariy bilimlarini, balki nutqiy kompetensiyasi, kommunikativ madaniyati va mustaqil tafakkurini rivojlantirish dolzarb vazifa sifatida belgilangan.

Nutq madaniyati pedagogning kasbiy mahoratini belgilovchi muhim omil bo‘lib, u o‘qituvchining fikrni aniq, ravon, mantiqiy va ta’sirchan ifoda eta olish qobiliyatini namoyon etadi. O‘qituvchi nutqining boyligi, ifodaliligi va adabiy til me’yorlariga mosligi o‘quvchilarning bilim olish faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois oliy pedagogik

ta’lim muassasalarida bo’lajak o’qituvchilarning nutq kompetensiyasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu jihatdan, bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarida nutq madaniyatini rivojlantirish metodlarini ilmiy asosda takomillashtirish bugungi pedagogika fanining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar pedagoglardan nafaqat chuqur bilim, balki yuksak kommunikativ kompetensiyani ham talab etmoqda. Hozirgi kunda ko’plab talabalarda fikrni erkin ifodalash, auditoriya bilan muloqot qilish, nutqning ta’sirchanligini ta’minlash kabi ko’nikmalar yetarli darajada shakllanmaganligi kuzatilmoqda. Bu esa bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarida nutq madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Boshlang’ich ta’limda o’quvchilarning nutqiy faoliyati asosan o’qituvchi nutqi orqali shakllanadi. O’qituvchi qanchalik ravon, obrazli va mantiqiy nutqqa ega bo’lsa, o’quvchilarning nutqiy faolligi ham shunchalik rivojlanadi. Shu jihatdan pedagogika oliy ta’limida nutq madaniyatini rivojlantirish bo’yicha ilmiy-metodik ishlarni kuchaytirish dolzarb hisoblanadi.

Nutq madaniyati – bu shaxsning adabiy til me’yorlariga amal qilgan holda fikrni aniq, ravon, mantiqiy va ta’sirchan ifodalash qobiliyatidir. Nutq madaniyati quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- fonetik madaniyat;
- grammatik madaniyat;
- leksik boylik;
- uslubiy moslik;
- muloqot etikasi.

Nutq madaniyati pedagogning kasbiy muvaffaqiyatini ta’minlovchi muhim omil sanaladi. O’qituvchi dars jarayonida o’z nutqi orqali o’quvchilarni fikrlashga, mustaqil mulohaza yuritishga va muloqotga undaydi. Shu sababli bo’lajak pedagoglarda nutq texnikasi, talaffuz madaniyati va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish zarur.

Quyida bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarida nutq madaniyatini rivojlantirish metodlariga misollar keltiramiz:

Interfaol metodlar talabalarni mustaqil fikrlashga, muloqotga kirishishga va o’z fikrini asoslab berishga o’rgatadi. Ayniqsa, “Mikrofon”, “Storytelling” (Hikoya yaratish), “Nutqiy refleksiya”, “Bumerang” kabi metodlar talabalar nutqini rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

Masalan, “Mikrofon” metodi orqali talabalar muayyan mavzu yuzasidan qisqa, aniq va ravon fikr bildirishga o’rganadilar. Talabaga “mikrofon” ramziy ravishda uzatiladi va u 1–2 daqiqa davomida mavzu bo’yicha o’z fikrini ifodalaydi. Metod nutqning aniqligi, mantiqiyliigi va erkinligini rivojlantiradi. Natijada o’z fikrini omma oldida bayon qilish ko’nikmasi shakllanadi.

Muammoli vaziyat yaratish talabalarning tafakkurini faollashtiradi va erkin fikrlashga undaydi. Talabalar muammoli savollarga javob topish jarayonida nutqiy faoliyatga kirishadi, o’z fikrini asoslashga harakat qiladi. Masalan, “Case-study” (Muammoli vaziyat) metodi orqali talabalarga real pedagogik vaziyatlar beriladi va ular

ushbu muammoni nutqiy muloqot orqali hal etadilar. Natijada mustaqil qaror qabul qilish, nutqning izchilligi va ijodiy yondashuv rivojlanadi.

Rolli o‘yinlar talabalarni real pedagogik vaziyatlarga tayyorlaydi. Dars jarayonlarini sahnalashtirish, dialoglar tuzish va pedagogik vaziyatlarni modellashtirish orqali talabalar nutq texnikasini amaliy jihatdan o‘zlashtiradi. Bunga misol qilib, “Pedagogik rol o‘ynash” metodini keltirishimiz mumkin.

Talabalar o‘qituvchi, o‘quvchi, ota-ona kabi rollarni bajarib, turli pedagogik vaziyatlarni sahnalashtiradilar. Afzalligi: pedagogik muomala madaniyati shakllanadi, nutq etikasi rivojlanadi va konfliktli vaziyatlarda to‘g‘ri muloqot qilish o‘rganiladi.

Raqamli texnologiyalar yordamida talabalar nutqini rivojlantirish samaradorligi ortmoqda. Audio va video materiallar bilan ishlash, taqdimot tayyorlash, onlayn munozaralarda qatnashish talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantiradi.

Badiiy va ilmiy adabiyotlarni mutolaa qilish nutq boyligini oshirishning eng samarali vositalaridan biridir. Matn ustida ishlash jarayonida talabalar: yangi so‘zlarni o‘zlashtiradi, fikrni tahlil qiladi, og‘zaki va yozma nutqini boyitadi. Matnni qayta hikoyalash, reja tuzish va esse yozish kabi topshiriqlar nutq madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, interfaol metodlardan foydalanilgan mashg‘ulotlarda talabalar nutqiy faolligi sezilarli darajada oshgan. Ayniqsa, kichik guruhlarda ishlash, munozarali darslar va prezentatsiyalar tashkil etish talabalar nutqining ravonligi hamda mantiqiyiligini rivojlantirgan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida nutq madaniyatini rivojlantirish zamonaviy pedagogik ta‘limning ustuvor vazifalaridan biridir. Nutq madaniyati pedagogning kasbiy kompetensiyasini belgilovchi asosiy omillardan biri bo‘lib, o‘quvchilar tafakkuri va ma‘naviy rivojlanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Interfaol metodlar, muammoli ta‘lim, rolli o‘yinlar va axborot texnologiyalaridan foydalanish talabalarning nutqiy va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda yuqori samaradorlik beradi. Shu sababli oliy pedagogik ta‘lim tizimida nutq madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan metodik ishlarni yanada takomillashtirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son Farmoni. 2030 yilgacha oliy ta‘lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini
2. “Ta‘lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni.
3. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2020.
4. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent, 2019.
5. Vygotskiy L.S. Tafakkur va nutq psixologiyasi. – Moskva, 1999.